ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

MAXTUMQULINING IJODIDA FALSAFIY-DIDAKTIK QARASHLAR

Kadirova Zaynura Zaynidinovna
Termiz davlat universitet o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi dotsenti (PhD).

Annotatsiya: maqolada Maxtumquli she’riyatining didaktik tabiati haqida so‘z yuritilib, uning asarlari kitobxonlar uchun axloqiy-axloqiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilishi, o‘z-o‘zini tafakkurga chorlashi, o‘z-o‘zini takomillashtirishga undashi ta’kidlanadi. Muallif Maxtumquli she’riyatining falsafiy negizini ham o‘rganadi, uning hayot, o‘lim, borliq tabiati haqidagi tafakkurlari she’rlarida qanday aks etganligini tekshiradi.

Kalit so‘zlar: Maxtumquli, o‘zbek adabiyoti, turkiy adabiyot, she’riyat, falsafa, didaktika, axloqiy ta’limot, madaniy meros.

Maxtumquli mashhur Turkman shoiri va mutafakkiri, Turkman adabiyoti, madaniyati, rivojiga hissa qo‘shgan iqtidor sohibi. Otasi Davlatmamat Ozodiy (1700—1760) ham shoir bo‘lgan. Maxtumquli boshlang‘ich ta’limni oilada o‘z otasidan olgan. So‘ng qishloq maktabida Niyozsolih mulla qo‘lida o‘qigan. Keyinchalik Buxoroning Ko‘kaldosh, Xivaning Sherg‘oziy madrasalarida tahsil olgan. Nizomiy, Firdavsiy, Fuzuliy, Navoiy singari mashhur shoirlar ijodidan bahramand bo‘lgan Maxtumquli bir qancha lirik she’rlar, lirik-epik dostonlar, g‘azal va muxammaslar yozgan. Shoir ba’zi she’rlarida “Firog‘iy” taxallusini qo‘llaydi. Afg‘oniston, Eron, Hindiston kabi mamlakatlar va Samarqand, Toshkent, Turkiston singari shaharlarga sayohat qilgan. Maxtumqulining ishq-muhabbat mavzusidagi she’rlari ham ohangdorligi, chuqur falsafiy mohiyati bilan ajralib turadi. Bizgacha uning lirik, falsafiy, pand-nasihat xarakteridagi 10ming misradan ortiq she’rlari yetib kelgan. Uning she’rlarida Turkman xalqining hayoti, urf-odatlari, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hodisalari, millat birligi, falsafiy-didaktik qarashlar, ma’naviy – axloqiy mavzular ifoda etilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish ham joizki , Maxtumquli Firog‘iyning "Saylanma" asari ham millat ruhini yuksaltirish kabi xislatlar bilan sug‘orilgan. Asarda buyuk shaxslar, mashhur joy nomlari, o‘ziga xos she’riy uslublar bilan uyg‘unligi o‘quvchini o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi. «Turkman binosi ” she’rida Turkman xalqiga xos g‘urur, oriyat, ittifoqlik tuyg‘ulari haqida iftixor bilan yozadi. Ayni vaqtda shoir turkmanlardagi bunday ma’naviy sifatlar shakllanishida o‘z ijodi va faoliyatining ham o‘rni borligini ta’kidlaydi:

Qurganim aslida, bilgil, bu zaminning mixidir,
Erur ul erkin doim, budur Turkman binosi.
Garki dunyo aylaydi, gar kelsa raqib qoshiga,
Bir po‘latdan bino bo‘lgan, budur Turkman qal’asi.

Maxtumquli el-ulusning saodati, yurtning obodligi uchun eng katta omil millat birligi, yakdilligi ekaniga alohida urg‘u beradi. Buni quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin:

Taka, yovmut, yazir, go‘klang, ahal eli bir bo‘lib,
Gar qilsa bir joyga yurish, ochilar gul-lolasi.

Shoirning hayot va o‘lim, inson va borliq, go‘zal insoniy fazilatlar va odob-axloqqa oid she’rlarida islom dini hamda tasavvufiy qarashlar ta’siri yaqqol seziladi. (“Maxtumquli, shukr et sen Xudoga, O‘lim barobardir shoh-u gadoga”). Ko‘p she’rlarida Qur’oni Karim oyatlari, hadisi sharifning

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

mazmun-mohiyati singdirilgan. Hatto muhabbat mavzusidagi eng go‘zal she’rlari Yaratganga bo‘lgan ilohiy ishq kechinmalari bilan uyg‘un tarzda berilganligini ko‘rishimiz mumkin

Asli seni ko‘rmaganman, nigorim!
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?
G‘amgin dilni hayoling-la aldarman,
Bog‘ ichinda bir gulmisan, namasan?
Yo mushukmisan, yo jambil, yo anbar.
Aytolmayman, yo charxmisan, yo chambar.
Daryomisan, yo mavjmisan, yo savsar,
Girdobmisan, to‘lqinmisan, namasan?

Bu she’rdagi yor Alloh bo‘lib, avvalgi misrada bu dunyoda uni ko‘rmagani aytilmoqda va tabiatdagi eng nafis tasvirlar go‘zallik ramzlari orqali ana shu ilohiy nigorni topish istagini, ishtiyoqini shoir yashirmaydi. Butun borliq , koinotning egasi ularni harakatga keltiruvchi itoatda tutib turuvchi qudrat sohibini «yo charxmisan, yo chambar, Daryomisan, yo mavjmisan” deya tafakkur qiladi.

Ayni paytda shoirning ijodida ma’naviy-axloqiy mavzular ustuvorligi ham ko‘zga tashlanadi. Muallif aqlning yuksak ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini o‘ziga singdirgan donishmand sifatida namoyon bo‘ladi. Uning o‘gitlari avlodlarni axloqiy poklikka, ma’naviy yuksaklikka o‘rgatadi:

Kel, ko‘nglim, men senga o‘git berayin:
Yiroq qilma ko‘rar ko‘zing_ elingni.
Qimmatin ketkizma, o‘rnida so‘zla,
Ravo ko‘rma har nokasga tilingni
So‘ziga javob ber har kim so‘rasa,
O‘zingni uzoq tut nomard yo‘risa,
Bir miskin termulib yig‘lab qarasa,
Baholama, tekin bergin molingni.

Shu bilan birgalikda Maxtumquli she’riyatida ayol-qizlarning odobi, ularning go‘zalligi, ozodaligi, tarbiyaligi, eriga bo‘lgan hurmati haqida ham she’rlari mavjud.

Yaxshi xotin kular erning yuziga,
Ming jon qurbon uning har bir so‘ziga
Oro berar ham uyi ham o‘ziga
Qozonidan, tovog‘idan bilinar.

Maxtumquli bu she’rida ayollarning erining yuziga doim kulib qarashi , erini hurmat qilishi, o‘ziga oro berib yurishi, ozoda bo‘lishi haqida yozib o‘tgan.

Bordir go‘zal sirka bosar sochini
Ortmaz, yuvmaz tobagini sirtini.
Silamaydi otasin, ona yoshini,
Uning xizmatidan ketging keldi.

Bu misralarida shoir ayol-qizlarning odobli, pokiza, juda ham yaxshi xulqli bo‘lishini istagan. Ota-onasini hurmat qilmaydigan katta-kichikning farqiga bormaydigan odobsiz kelin qizlarni pastlagan.

“Dunyodir” she’ri

Ey yoronlar, musulmonlar,
Kelib- ketmali dunyodir
Qurbi yetgan mard yigitlar,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

To‘kib- sochmali dunyodir.
Hech kim bunda tutmas o‘rin,
Sog‘likda, to‘kib-soch barin,
Buncha yig‘nab, netdi Qorun
To‘kib- sochmali dunyodir.
Bu dunyoning g‘amin yersan,
Odam o‘g‘li, bil, o‘larsan,
Par to‘shakni qattiq, dersan,
Yerni quchmali dunyodir.
Zulm yog‘ar boshlaringga,
Og‘u qotar oshlaringga,
Bunda etgan ishlaringga,
Hisob bermali dunyodir.
Maxtumquli, o‘qib Qur’on,
Xudodan tilagin iymon,
Har yigit o‘lsa, benishon,
O‘rni o‘chmali dunyodir.

Ushbu she’rida ham bu dunyo o‘tkinchiligi, foniy ekanligi, bu dunyoning g‘amini ko‘p yemaslikni aytib o‘tiladi. Ushbu she’rning oxirgi misralariga qaraydigan bo‘lsak (Maxtumquli, o‘qib Qur’on, Xudodan tilagin iymon, Har yigit o‘lsa, benishon, O‘rni o‘chmali dunyodir) unda ham diniy yo‘nalish ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurazzakov, U. Makhtumkuli poetikasi: poetikaning asosiy tamoyillari. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi. 2012-yil.
2. Ahmedov, M. Makhtumkuli divani: falsafa, estetika, o'zbek adabiylari. Tashkent: Yosh gvardiya. 2005-yil.
3. Allayarov, O. Makhtumkuli divani: falsafa, ijodiyat, poetika. Tashkent: Adolat. 2015-y.
4. Aripov, B. Makhtumquli divani va falsafa. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi. 2008-yil.
5. Mahmudov, O. Makhtumkuli tarjimai-hol: falsafa va ijod. Tashkent: Yangi asr avlodi. 2018-yil.
6. Makhmudov, A.. Makhtumkuli: hayoti va ijodi. Tashkent: Sharq. 2010-yil.
7. Maxtumquli Firog‘iy. Saylanma. Toshkent. 2008-yil.
8. Gazeta.uz